

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON, 2024

QARINDOSHLIK OTLARI ATAMALARINING TIL LEKSIK TIZIMIDAGI O`RNI

Ochilova Gulnora Ulashevna

Samarqand davlat chet tillar instituti assistent o`qituvchisi

Annotatsiya: O`zbek tilidagi qarindoshlik atamaları paydo bo`lgunga qadar ko`p davrlarni, turli bosqichlarni bosib o`tgan. Vaqt o`tishi, o`zbek xalqi hayotida sodir bo`lgan iqtisodiy, siyosiy va madaniy o`zgarishlar bu tillarning lug`at tarkibini ham o`zgartirdi, ko`pgina qarindoshlik atamaları eskirib, qo`llanishdan chiqib ketdi, bir qator atamalarning ma`no doirasi kengaydi va o`zgardi. Ushbu maqolada yuqoridagi fikrlar keng yoritilishiga qaratiladi.

Kalit so`zlar: Qarindoshlik atamaları, kategoriya, qarindoshlik munosabatlari, leksik birlik, orttirilgan qarindoshlik.

Kirish. Har qanday tizim o`zaro bir – biri bilan bog`langan hamda bir – birini taqozo etuvchi elementlarning ma`lum qonuniyatga asoslangan munosabatlari jamlanmasini ko`zda tutganidek, qarindoshlik deb yuritiluvchi tizim ham o`zaro bog`liq va bir – birining borligi hisobigagina mavjud bo`luvchi individlar jamoasining munosabatlari ustiga qurilgan kategoriyadir. Bu holatning sodda ifodasi sifatida bu tizimda ota – ona kategoriyasi o`g`il – qiz kategoriyasi borligi uchungina mavjud ekanini yoki aksincha birinchi sanab o`tilgan qarindoshlik otlari atamaları keyingi avlod qarindoshlik otlari atamaları mavjudligi hisobiga bor bo`lishini keltirib o`tish mumkin, fikrning tafrijiy rivoji quyidagi ko`rinishda bo`ladi, ya`ni opa hamda aka kategoriyasi singil yoki ukanining hisobiga, uka hamda singil kategoriyasi esa, aka yoki opa hisobiga mavjud birliklardir. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib taniqli antropolog G.V. Dzibel o`rinli qayd etgan fikrlarni keltirib o`tish lozim: “Qarindoshlik munosabatlari tizimi kontekstida ob`yekt yoki sub`yekt tushunchasiga bo`linish haqida so`z bo`lishi mumkin emas, bu tizim kim haqida fikr yuritilishidan qat`iy – nazar subyekt deb hisoblanuvchi elementlardan tashkil topgandir”.

Qarindoshlik otlari atamaları tizimi – tasodifiy tanlab jamlangan tartibsiz so`zlar jamlanmasi bo`lmay, har bir xalqqa xos turdagi tartiblanishga ega bo`lgan turli xalqlar uchun turlicha bo`lgan tizimdir. Bu tizimning tadqiqi orqali etnograflar turli xalqlar hamda qabilalarga xos oila va ijtimoiy tuzilmalar shakllari, ularning tarixiy taraqqiyoti haqida ko`plab ma`lumotlarga ega bo`lishlari mumkin.

Turli xalqlardagi qarindoshlik otlari atamaları tizimi elementlari, shuningdek bir xalqning turli tarixiy davriy oraliqdagi qarindoshlik otlari atamaları ham qarindoshlikning biologik munosbatga bog`liqligi tufayli turlicha shakllanadi, bunday “shakllanish” aksariyat hollarda qarindoshlik otlari atamaları tizimining o`ziga xosligini belgilab beruvchi faktor hisoblanadi.

Shahar hayot tarziga moslashib ketgan hamda qarindoshlik munosabatlari tizimidan uzoqlashib ketgan urbanizatsiya vakili uchun “qaynegachi”, “qudag`ay” kabi qarindoshlik otlari atamaları mazmun – mohiyatini anglash uchun “O`zbek tilining izohli lug`ati”ga murojaat qilish ehtiyoji yuqori bo`ladi.

Turli xalqlar qarindoshlik otlari atamaları miqyosida qarindoshlik otlari yanada o`zgacha turfa xillik kasb etadi. Jumladan, ingliz tilidagi “brother – in – law” qarindoshlik oti atamasi mazkur xalq etnokulturasida qarindoshlik otlari atamaları tizimida birato`la besh subyektini ifodalashi kuzatiladi: 1) kishi xotining yoki erining akasi/ ukasi; 2) kishi singlisi/ opasining yoki “sister – in – law” [a] kishi xotini yoki erining singlisi/ opasi; b) kishi akasi/ ukasining yoki “brother – in – law”ning xotini]ning eri. Uning o`zbek tiliga xos qarindoshlik otlari atamaları tizimidagi muqobillariga: 1) “qaynog`a”; 2) “qaynini”; 3) “kuyov”; 4) “pochcha”; 5) “boja” atamaları

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON, 2024

kiradi. Ingliz tilidagi “uncle” qarindoshlik oti atamasi esa, uch subyektni idodalashi kuzatiladi: 1) kishi otasi yoki onasining akasi/ ukasi; 2) kishi ammasi/ xolasining eri. Uning o`zbek tilidagi qarindoshlik otlari atamalaridagi muqobillari quyidagilar kiradi: 1) “amaki”; 2) “tog`a”; 3) “pochcha”.

Muqoyasa qilinayotgan ikki tili – ingliz va o`zbek tillari qarindoshlik otlari atamaları qiyosini davom ettirib, ingliz tili qarindoshlik otlari atamaları tizimidagi ayrim atamalarda qarindoshning jinsi leksik birlik tarkibida aks ettirilgani holda ularning o`zbek tili qarindoshlik otlari atamaları tizimidagi muqobili bunday xususiyatlarga ega emasligini qayd etish mumkin, misol uchun ingliz tilidagi “nephew”: kishining akasi/ ukasi yoki opasi/singlisining o`g`li bo`lsa, kishining akasi/ ukasi yoki opasi/ singlisining qizi – “niece” atamasi vositasida ifodalanadi. Ayni birliklarning o`zbekcha muqobili yagona “jiyan” qarindoshlik oti atamasi hisoblanadi.

Shu o`rinda o`zbek tili qarindoshlik otlari atamaları tizimiga mansub birliklardagi belgilangan avlodning yoshi kattalik yoki kichiklik ma`nosi semasini ifodalay olish xususiyati Hind – Yevropa tillari oilasiga mansub tillarda, shu jumladan, ingliz tilida deyarli uchramasligini qayd etib o`tish lozim. Bu holatni “aka – bir ota – onadan tug`ilgan katta o`g`il” hamda “uka – bir ota – onadan tug`ilgan kichik o`g`il” qarindoshlik otlari atamaları ingliz tilida birgina “brother - a man or boy in relation to other sons and daughters of his parents (kishining o`z ota – onasining qiz va o`g`illariga nisbatan o`gil bola sifatidagi aloqasi)” muqobiliga ega ekanida va ushbu birlikda avlodga mansub yoshi kattalik yoki kichiklik o`z ifodasini topmaganida kuzatish mumkin. Ushbu fikrlarning tadrijiy rivoji opa va singil, so`zlarining ingliz tilidagi muqobili muqoyasasida ham o`z aksini topadi.

O`ziga xos maxsus xususiyatga ega qarindoshlik otlari atamaları tizimiga egalikdan turkiy xalqlar tillari ham xoli emas, jumladan, boshqird xalqida o`z akasi va otasi yoki onasining ukasi bir xil atama bilan yuritilgani holda o`z ukasi va akasi yoki opasining o`g`lini boshqa bir xildagi atama bilan yuritish holatini kuzatish mumkin. Yoki bolgar tilida o`gay ota, ona, o`g`il yoki qiz uchun xuddi o`zbek tilida uchramaganidek, yaxlit leksik birlik sifatida qo`llanilmaydi, ularga ham o`zbek tilidagidek aniqlovchi qo`shish hisobiga ushbu qarindoshlik otlari atamaları hosil qilinadi: ikkinchi ota – втори баща; ikkinchi ona – вторая майка. Shu tariqa, oilaviy qadriyatlar mezoni hamda rasmiy tan olingan huquqiga ko`ra oila tarkibiga ota yoki onaning birinchi turmushi hamda undan orttirilgan farzandlari ham qo`shilib olinishi mumkin, ayni paytda ajrashib ketgan ota yoki onaning ikkinchi nikohi va undan orttirilgan farzandlari ham oila tarkibiga kiritilishi mumkinki, bu holat bolgarlardagi qarindoshlik otlari atamalarining oila ma`no guruhi tarkibi boshqa yevropa xalqlari oila ma`no guruhlari tarkibiy tuzilishiga qaraganda tarqoq holatda joylashgan degan xulosaga kelishga zamin yaratadi.

Qarindoshlik otlari atamalarining ilmiy lug`atlarda keltirilgan ta`riflari borasida fikr yuritish avvalida ularning ikki turini aniq farqlab olish lozim. Ehtimol, bu farqlash faqat ushbu tadqiqot doirasidagina amal qilishi mumkin. Qarindoshlik otlari bir avlod shajarasi doirasidagi qon – qarindoshlik (yaqin qarindoshlar) hamda orttirilgan qarindoshlik (nikohdan keyingi qarindoshlar) turlariga bo`lib o`rganilishi mazkur tadqiqot mazmunining teranligini oshirishga xizmat qiladi.

Quyida qon – qarindoshlik borasidagi ilmiy tadqiq natijalari qisqacha bayoniga to`xtalib o`tiladi. Oxford American Dictionary “kinship – qarindoshlik”ga quyidagicha izoh beradi: “blood relationship — qon – qarindoshlik” bu ta`rifdan ko`ra to`liqroq mazmundagi ta`rif o`zbek tilining izohli lug`atida keltirilgan bo`lib, “qarindosh” so`zi o`zbek tilining izohli lug`atida “bir avlod – ajdodga mansub kishilar, ota – ona tomonidan bo`lgan shaxslar (biri boshqasiga nisbatan)” ta`rifi insonlar o`rtasidagi qarindoshlik munosabatlariga muvofiq keluvchi ta`rif hisoblanadi. “Qarindoshlik oti atamasi” umumiy olganda o`zaro qarindoshlik munosabati orqali bog`langan shaxslarning bir – biriga nisbatan oladigan atamasi hisoblanadi. O`zbek tilining izohli lug`atidan

ILM FAN YANGILIKLARI

KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON, 2024

chetlanib tahlilni davom ettirish orqali lingvistik terminlar lug'atiga murojaat qilish yuqorida keltirilgan ta'rifning to'g'ri ekanini tasdiqlaydi: "Kinship terms – Qon – qarindoshlik terminlari". Qarindoshlik atamasi izohi bo'yicha bahstlab holatlar talaygina bo'lib, qarindoshlarda yaqin o'tgan ajdodlar hamda uzoq o'tgan ajdodlar umumiyligi ularni bog'lab turuvchi rishta hisoblanadi. Ammo ota – ona hamda o'g'il / qiz farzand o'rtasidagi munosabatlar bu qoida doirasidan chiqishi ota – onaning — oldingi avlod, farzandlarning keyingi avlod ekanida aks etadi ya'ni ularni bog'lovchi rishta ajdodlar umumiyligi emas. Ayni o'rinda bobo / buvi hamda nabiralar o'rtasidagi munosabatlarda ham bu qoida bahstlabligicha qoladi. Boisi, bu holatda ham bobo / buvining o'zi ajdod ekani, nabiralar esa avlod ekanligidan, ajdodlar umumiyligi borasida ixtilof yuzaga keladi.

Orttirilgan qarindoshlik hamda qon – qarindoshlik atamaları bilan shaxslarning nomlanishi masalasining mazmuniy tarkibini lingvistik nuqtai – nazardan ko'rib chiqish uning ijtimoiy holatga ko'ra yosh kategoriyalari nomlanishidan deyarli farqlanmasligini keltirib chiqaradi. Bunday leksik guruhlarining o'rtasidagi farq qarindoshlik otlari atamaları ijtimoiy holatning yoshga ko'ra guruhlaridan har bir subyektning takrorlanmas, alohida bo'lgan, o'z atamasi borligida ekanida ko'rinadi. Shu tariqa qarindoshlik otlari atamaları subyektlarning ko'plikda qo'llana olmaslik cheklovi "ota" yoki "ona" misolida; subyektlarning juft holatda qo'llanish talabi "bobo - buvi" misolida o'z ifodasini topadi hamda ijtimoiy yosh guruhlaridan tubdan farqlanadi.

Xulosa. Qarindosh hamda qarindoshlik borasidagi yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirib qarindoshlik umumiy ota – ona yoki ajdodlar umumiyligiga ega shaxslar orasidagi munosabat degan to'xtamga kelish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. V jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 249.
2. Sh.S. Safarov Tilshunoslik terminlari lug'ati "Lug'at". – T.: "Lesson press" nashriyoti, 2023. – 356 b.
3. OxfordAmericanDictionary (En-En) (к версии АBBYY Lingvo x3) New Oxford American Dictionary, 2nd Edition. © 2005 by Oxford University Press, Inc.
4. Дзибель Г.В. Поколение, возраст и пол в системах терминов родства: опыт историко-типологического исследования: Дисс. ... канд. истор. наук. - СПб., 1997.-349 с.
5. М.В. Крюков Система родства китайцев. - М.: Изд-во наука, 1972. - 327 с.
6. О.А. Ганцкая Польская семья: опыт этногр. Изучения / Отв. ред.: Смирнова Я.С., Токарев С.А. - М.: Наука, 1986. - 177 с.
7. А.И. Моисеев Термины родства в современном русском языке // Филологические науки. -М.: Наука, 1963. -№3. - С. 120-132.
8. Брак у народов Северной и Северо-Западной Европы / Под ред. Анохин Г.И. -М.: Наука, 1990. – С 34.
9. В.Н. Ярцева Контрастивная грамматика. - М.: Наука, 1981. - 112 с.
10. Д. Слобин, Дж. Грин Психоллингвистика. Перевод с английского Е. И. Негневицкой/ Под общей редакцией и с предисловием доктора филологических наук А. А. Леонтьева. - М.: Прогресс, 1976. - 336 с.